

XITOIY TILIDA LOKATIVLARINING IFODALANISH XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352550>

NURMAMETOV Mironshox
Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of the expression
and formation of locatives in modern Chinese

Xitoy tilida lokativlarning katta qismi ko‘makchilar orqali ifodalanadi. Ko‘makchilarning grammatik xususiyatlari fe‘llar bilan o‘hshash. Ko‘makchilar ot, olmoshdan oldin yoki keyin qo‘llanadi. Gap tarkibida ko‘makchi mavjud bo‘lgan lokativlikni ifodalaydigan so‘z birikmasi hol vazifasini bajaradi va narsa-hodisaning, harakatning vaqtini, joyini ifodalash uchun qo‘llanadi¹. Masalan:

我在家等你

“Wo zai jia deng ni.”

“Men seni uyda kutaman.”

Ushbu gapda 在家 “zai jia” harakatni sodir bo‘ladigan joyini ifodalaydi.

Xitoy tilida ko‘makchilar soni ko‘p emas, lekin ularning qo‘llanish doirasi keng, undan tashqari, bitta ko‘makchi turli xil vaziyatda har xil grammatik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xitoy tilida vaqtini va o‘rin-joyini ifodalovchi ko‘makchilar yordamida lokativlarni ifodalash mumkin.

Lokativlikni ifodalovchi ko‘makchilarning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari haqida gapirganda quyidagilarni ajratib ko‘rsatish kerak.

1) Xitoy tilida ba‘zi so‘zlar ham fe‘l ham ko‘makchi bo‘lib hisoblanadi². Masalan, 在 “zai” fe‘li:

小明不在家。“Xiaomin bu zai jia.” “Siyaomin uyda emas.”

书在桌子上放着。“Shu zai zhuzi shang fangzhe.” “Kitoblar stol ustida.”

Birinchi gapda 在 “zai” fe‘l, ikkinchi gapda esa ko‘makchi vazifasida qo‘llanadi.

2) Lokativlikni ifodalovchi ko‘makchilar reduplikativ shaklga ega emas³.

3) Ko‘makchilar gapda yakka holda qo‘llanila olmaydi, shuningdek, yakka holda sintaktik vazifasiga ega bo‘lmaydi. Masalan, 阿里从 “Ali cong”, 从图书馆 “cong tushuguan” deb bo‘lmaydi. Biroq, agar, masalan, 你在大学学习吗? “Ni zai daxue xuexi ma?” deb savol berilsa 在 “zai” deb javob bersa bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, istisno bo‘lib hisoblanadi. Boshqa barcha hollarda ko‘makchilarni yakka holda qo‘llab javob berib bo‘lmaydi. Masalan: 这本书从图书馆借的吗? “Zhe ben shu cong tushuguan jiede ma?” savoliga 从 “cong” deb javob berib bo‘lmaydi⁴.

¹故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 264页。

²故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 268页。

³高级汉语。- 华语教学出版社，2011年。- 67页。

⁴丁声树。现代汉语语法讲话。商务印书馆，1961年。- 163页。

Lokativlikni ifodalovchi tarkibida ko‘makchisi bor so‘z birikmasi gapda *hol* vazifasini bajaradi. Masalan:

我的一个老同学从上海来了。

“Wode yige laotongxue cong Shanghai laile.”

“Mening bitta sobiq kursdoshim Shanhaydan keldi.”

Shuningdek, *aniqllovchi* vazifasini ham bajaradi:

李希光是中国科技工作者学习的榜样。

“Li Xiguang shi Zhongguo keji gongzuozhe xuexide bangyang.”

“Li Siguang Xitoy ilm va texnika ahlining havas qiladigan insoni.”

To‘liqllovchi vazifasida ham qo‘llanadi:

鲁迅生于1881年⁵。

“Lu Xun shenyu 1881 nian.”

“Lu Sin 1881 yilda tug‘ilgan.”

他来自美国南部的一个城市⁶。

“Ta lai zi Meiguo nanbude yige chengshi”

“U Amerikaning janubiy qismidan kelgan.”

To‘ldiruvchi vazifasida ko‘pincha 在 “zai” yoki 是 “shi” fe‘lli gaplarda qo‘llanadi:

我初次见到您是在一次电影招待会上。

“Wo chuci jiandao nin shi zai yici dianying zhaodaihui shang.”

“Men sizni birinchi marta kino taqdimotida uchratganman.”

Ega vazifasida ham qo‘llanadi:

从8:00 到12:00是工作时间。

“Cong 8:00 dao 12:00 shi gongzuo shijian.”

“Ish vaqti ertalab soat 8:00 dan 12:00gacha.”

村子从南到北有一条河。

“Cunzi cong nan dao bei you yi tiao he.”

“Qishloqning janubidan shimoligacha daryo esib o‘tgan.”

Quyida lokativlikni ifodalovchi ko‘p qo‘llaniluvchi ko‘makchilar haqida to‘htalib o‘tamiz.

从 “cong” ko‘makchisi haqida.

从 “cong” ko‘makchisi narsa-hodisani ro‘y bergan (berayotgan) boshlang‘ich punktini bildiradi, bu holda ushbu ko‘makchidan keyin odatda joyni yoki yo‘nalishni ifodalovchi so‘zlar qo‘llanadi. Masalan:

他姐姐从美国来了。

“Ta jiejie cong Meiguo laile.”

“Uning opasi Amerikadan kelgan.”

明天大家先到我家集合，从我这儿走比较近。

“Mingtian dajia xian dao wo jia jihe, cong wo zher zou bijiao jin.”

“Ertaga hamma avval mening uyimda yig‘iladi, menikidan borish yaqinroq.”

Shu bilan birga 从 “cong” ko‘makchisi narsa-hodisani ro‘y bergan (berayotgan) boshlang‘ich vaqtini bildiradi, bu holda ushbu ko‘makchidan keyin vaqtni ifodalovchi so‘zlar qo‘llanadi. Masalan:

他从昨天下午开始就有点不舒服。

⁵故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 269页。

⁶朱德藩。现代汉语语法研究。商务印书馆，2007年。- 211页。

“Ta cong zuotian xiaowu kaishi jiu you dian bu shufu.”

“U kecha tushlik paytidan boshlab o‘zini yomon his qildi.”

Shuningdek, 从 “cong” ko‘makchisi narsa-hodisani kelib chiqishini ham bildiradi, masalan:

汉语的各种方言都是从古代汉语演变分化出来的。

“Hanyude gezhong fangyan dou shi cong gudai hanyu yanbian fenhua chulaide.”

“Xitoy tilidagi turli xil shevalar qadimgi xitoy tilidan o‘zgargan holda ajralib chiqqan.”

从 “cong” ko‘makchisi yordamida turli xil lokativlikni ifodalovchi konstruktsiyalar hosil bo‘ladi: [“从...到...”] [“cong...dao...”], [“从...起...”] [“cong...qi...”], [“从...以来...”] [“cong...yilai...”], [“从...往...”] [“cong...wang...”], [“从...以后...”] [“cong...yihou...”] va boshqalar.

[“从...到...”] [“cong...dao...”] konstruktsiyasi narsa-hodisaning boshlanish vaqtini, joyini, shuningdek, miqdorni ham ifodalaydi, o‘zbek tiliga “...-dan...-gacha” deb tarjima qilinadi. Gapda hol, kesim, ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi vazifasida qo‘llanishi mumkin. Masalan, ushbu konstruktsiya ishtirok etgan so‘z birikmasining hol vazifasida qo‘llanilishiga oid misollarni ko‘rib chiqamiz:

那天, 从天亮到深夜, 全城的鞭竹声不绝于耳⁷。

“Na tian, cong tianliang dao shenye, quanchengde bianzhusheng bu jueyu er.”

“O‘sha kuni erta tongdan tungacha hamma yoqda paqildoqlarni ovozi tinmadi.”

我们国的建筑, 从古代的宫屋到近代的一般住房, 绝大部分是对称的。

“Women guode jianzhu, cong gudaide gongwu dao jindaide yi ban zhufang, juda bufen shi duichengde.”

“Mamlakatimizning inshootlari, qadimgi saroylardan hozirgi oddiy uylargacha tog‘ri nomlangan.”

Ushbu konstruktsiya ishtirok etgan so‘z birikmasining kesim vazifasida qo‘llanilishiga oid misolni ko‘rib chiqamiz:

海风, 从八级到九级, 又从九级到十级⁸。

“Haifeng, cong ba ji dao jiu ji, you cong jiu ji dao shi ji.”

“Dengiz shamolining tezligi sakkizdan to‘qqizgacha, so‘ngra to‘qqizdan o‘n m/s gacha o‘zgardi.”

Ushbu konstruktsiya ishtirok etgan so‘z birikmasining ega vazifasida qo‘llanilishiga oid misollarni ko‘rib chiqamiz:

从开花到果子成熟, 大约得三个月。

“Cong kaihua dao guozi chengshu, dayue dei san ge yue...”

“Daraxtlarning gullaganidan to mevalarni pishishiga qadar hali yana uch oy bor.”

从城市到农村有一千多公里的路程。

“Cong chengshi dao nongcun you yi qianduo gonglide lucheng.”

“Shahardan qishloqqacha ming kilometrdan ortiq masofa bor.”

Ushbu konstruktsiya ishtirok etgan so‘z birikmasining to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llanilishiga oid misolni ko‘rib chiqamiz (ushbu konstruktsiya to‘ldiruvchi vazifasida asosan 是 “shi” fe‘lli gaplarda qo‘llanadi)⁹:

⁷故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 274页。

⁸高级汉语。华语教学出版社, 2011年 - 45页。

⁹朱德藩。现代汉语语法研究。商务印书馆, 2007年。- 216页。

这条高速公路是从三元桥到首都国际机场，全长15公里。

“Zhe tiao gaosu gonglu shi cong sanyuanqiao dao shoudu guoji jichang, quan chang 15 gongli.”

“Bu magistral yo‘li Sanyuanqiaodan poytaxt aeroportigacha o‘n besh kilometrni tashkil qiladi.”

Ushbu konstruktsiya ishtirok etgan so‘z birikmasining aniqlovchi vazifasida qo‘llanilishiga oid misolni ko‘rib chiqamiz:

从北京到张家口的铁路长二百公里。

“Cong Beijing dao Zhangjiakoude tielu chang erbai gongli.”

“Pekindan Zhangjiakougacha bo‘lgan temir yo‘l uzunligi 200 kilometrni tashkil qiladi.”

[从...起...] [“cong...qi...”] konstruktsiyasi [从...开始...] [“cong...kaishi...”] ma’nosiga ega, bu ikkita konstruktsiya vaqtni bildiradi, o‘zbek tiliga “...-dan boshlab” deb tarjima qilinadi. [从...起...] [“cong...qi...”] konstruktsiyasi odatda gapning boshida qo‘llanadi va gapda hol vazifasini bajaradi. Masalan:

从今天起，我就要在中国学习，生活了¹⁰。

“Cong jintianqi, wo jiu yao zai Zhongguo xuexi, shenghuo le.”

“Ertadan boshlab men Xitoyda o‘qib yashamoqchiman.”

从三十年代起，他写了很多重要论文，成了国际上有名的地质学家。

“Cong sanshi niandaiqi, ta xiele henduo zhongyao lunwen, chengle guojishang youmingde dizhixuejia.”

“U o‘ttizinchi yillardan boshlab ko‘p maqolalar yozdi va dunyodagi mashhur mintaqashunos olim sifatida tanildi.”

[从...以来...] [“cong...yilai...”] konstruktsiyasi o‘tgan zamondan boshlab gapirilayotgan paytga qadar bo‘lgan vaqtni bildiradi, o‘zbek tiliga “...-dan buyon” deb tarjima qilinadi. Ba’zi hollarda 从 “cong” tushib ham qoldiriladi. Masalan:

从开学以来，我还没有请过假。

“Cong kaixue yilai, wo hai meiyu qingguo jia.”

“O‘qish boshlanganidan buyon men ta’tilga chiqmaganman.”

他从自己开这个公司以来，天天夜里十点多钟才到家¹¹。

“Ta cong ziji kai zhege gongsi yilai, tiantian yeli shidian duozhong cai dao jia.”

“U o‘zining firmasini ochganidan buyon har kuni kech soat o‘ndan keyin uyga qaytadi.”

从到中国以来，我还没有生活病。

“Cong dao Zhongguo yilai, wo hai meiyu shengguo bing.”

“Xitoyga kelganimdan buyon hali kasal bo‘lmadim.”

[从...以后] [“cong...yihou...”] konstruktsiyasi “...-dan keyin (boshlab)” ma’nosiga ega, bunda han “cong” tushirib qoldirilishi mumkin¹². Masalan:

从今天后，我决定不再工作。

“Cong jintian hou, wo jieding bu zai gongzuo.”

“Bugundan boshlab men boshqa ishlamayman, deb qaror qildim.”

¹⁰故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 275页。

¹¹丁声树。现代汉语语法讲话。商务印书馆，1961年。- 169页。

¹²刘月华。汉语语法论集。现代出版社，1992年。- 233页。

从 “cong” ko‘makchisi bir necha sinonimlarga ega, bular 由 “you”, 自从 “zicong”, 自 “zi”, 打 “da”.

由 “you” ko‘makchisi bir necha ma’noga ega, xususan, u narsa-hodisa ro‘y berayotgan (bergan) joyni, vaqtini, kelib chiqishini bildiradi, 从 “cong” ko‘makchisi ifodalaydigan ma’no bilan bir xil. 由 “you” ko‘makchisi adabiy nutqda, 从 “cong” esa og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llanadi. Masalan:

明天大家先到方先生家集合，由方先生那儿走比较近。

“Mingtian dajia xian dao Fang xiansheng jia jihe, you Fang xiansheng nar zou bijiao jin.”

“Ertaga hamma avval janob Fangning uyida yig‘iladi, janob Fangnikidan borish yaqinroq.”

由1979年开始，他就从事业余写论文作，已经坚持十八年了¹³.

“You 1979 nian kaishi, ta jiu cong shiyeyu xie lunwen, yijing jianchi shiba nian le.”

“1979 yildan boshlab u har kuni ishdan bo‘sh vaqtlarida maqola yozar edi, bunga esa 18 yil bo‘ldi.”

“You shangwu 9:00 dao xiawu 3:00, shi tamen dui waibangongde shijian.”

“Ularning ofisdagi ish vaqti ertalab soat 9:00 dan tushlikdan keyin soat 3:00 gacha.”

由 “you” va 打 “da” ko‘makchilari ham narsa-hodisa ro‘y berayotgan (bergan) joyni, vaqtini bildiradi, 打 “da” shimoliy shevada qo‘llanadi, 自 “zi” adabiy nutqga xos. 自从 “zicong” ko‘makchisi faqat o‘tgan zamonda ro‘y bergan narsa-hodisani ifodalaydi.

REFERENCES

1. 丁声树。现代汉语语法讲话。- 商务印书馆，1961年。
2. 高级汉语。- 华语教学出版社，2011年
3. 故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。
4. 刘月华。汉语语法论集。- 现代出版社，1992年。
5. 朱德藩。现代汉语语法研究。- 商务印书馆，2007年。
6. С.А. Хашимова. ҲОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ХОДИСАСИ
- МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2020
7. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ.
Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
8. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
9. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (p. 361).*
10. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
11. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.

¹³丁声树。现代汉语语法讲话。商务印书馆，1961年。- 170 页。

12. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
13. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
14. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
15. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
16. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
17. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
18. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
19. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
20. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
21. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
22. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019